

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN KASBIY STANDARTDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

KIRISH

XXI asr — global o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti va raqamli transformatsiya davri bo'lib, bu sharoitda maktabgacha ta'lim tashkiloti MTT pedagogidan yuqori darajadagi kasbiy bilim, amaliy ko'nikma, inklyuziv yondashuv, AKT savodxonligi va bolaga yo'naltirilgan ta'lim talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish hamda attestatsiya jarayonini adolatli va shaffof o'tkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mazkur spetsifikatsiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar va boshqa tegishli mutaxassislarning kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini kasb standartlari asosida baholashga qaratilgan bo'lib, attestatsiya jarayonini adolatli, shaffof va aniq mezonlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu hujjat test topshiriqlarining tuzilishi, mazmuni va baholash talablarini belgilab beradi.

Spetsifikatsiya aprobatsiya jarayonlari asosida muntazam takomillashtirib boriladi hamda maktabgacha ta'limdagi zamonaviy islohotlar va yangi normativ hujjatlarga muvofiq ravishda yangilanadi.

I. Maqsad

Mazkur spetsifikatsiyaning asosiy maqsadi — maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasb standarti bo'yicha bilim va amaliy ko'nikmalarini baholashda kasbiy bilim va ko'nikmalarni kasb standarti asosida aniqlash hamda pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlanishga yo'naltirish.

II. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda test sinovida qamrab olinagan mazmun sohalari

Attestatsiya jarayonida quyidagi asosiy yo'nalishlar qamrab olinadi:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish
2. Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish
3. Bolalar rivojlanishini kuzatish
4. Oila va hamkorlik qilish
5. Kasbiy rivojlanish

III. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda qamrab olinadigan konstruktlar

№	Talablar	Konstruktlar
1	Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish	Inklusiv, xavfsiz va psixologik qulay muhit yaratish, bolaga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlash, har bir bolaning ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlash, teng imkoniyatlarni yaratish, ta'lim muhitini boyituvchi resurs va materiallarni tanlash hamda moslashtirish, hayot faoliyati xavfsizligi, gigiyena va sanitariya me'yorlariga rioya qilish, bolalarning mustaqilligi va o'z-o'zini rivojlantirishini rag'batlantirishni tashkil etishni bilish va amaliyotda qo'llay olish.
2	Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish	Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etishda individual farqlarni inobatga olgan holda moslashtirishni amalga oshirish, vaziyatlarda bolalar xavfsizligini ta'minlash va favqulodda holatlarga tayyor turish, pedagogik muhitda ijtimoiy va emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash usullarini qo'llay olish, o'zgaruvchan sharoitlarda ta'lim muhitini samarali boshqarish va muammoli vaziyatlarni hal qilish, faol metodlardan foydalanishni bilish va amaliyotda qo'llay olish
3	Bolalar rivojlanishini kuzatish	Har bir bolaning rivojlanish bosqichlarini tizimli kuzatish va qayd qilish, kuzatish natijalariga asoslanib ta'lim jarayonini moslashtirish va rejalashtirishni takomillashtirish, bola rivojlanishidagi ehtiyoj va qiyinchiliklarni aniqlab, ota-ona hamda mutaxassislar bilan ma'lumot almashishni bilish, amaliyotda qo'llay olish
4	Oila va hamkorlik qilish	Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etish va ularning fikrini hurmat qilish, ota-onalar bilan samarali muloqot va axborot almashish (seminar, davra suhbatlari, treninglar), pedagoglar va psixologlar bilan hamkorlikda bolani rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish, oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va mahalla hamkorligini yo'lga qo'yishni vaziyatga nisbatan amaliyotda qo'llay olish.
5	Kasbiy rivojlanish	O'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya qilish, malaka oshirish, qayta tayyorlash va ustoz-shogird tizimida ishtirok etish, zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlarni o'rganish hamda amaliyotda qo'llash, uzluksiz kasbiy rivojlanish bo'yicha shaxsiy reja tuzish va amalga oshirish, hamkasblar bilan tajriba almashish va yangi bilimlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ehtiyojlarni belgilash, kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishni bilish

Test sinovida quyidagi kognitiv darajalar baholanadi:

1. Bilish.
2. Qo'llash.
3. Mulohaza yuritish.

IV. Kasb standarti bo'yicha bilimlarni baholashda qo'llaniladigan test turlari

- Y 1 – bir nechta javobli yopiq test;
- Y 2 – moslikni tanlashga oid yopiq test;
- Y 3 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test;

Eslatma 1: texnik imkoniyatlar tufayli testning ayrim turlari o'zgarishi mumkin.

V. Kasb standarti bo'yicha testlar spetsifikatsiyasi

Mazmun soha	Bo'lim	Topshiriq soni	Baholanadigan aqliy faoliyat turi	Test turi
Rivojlantiruvchi ta'lim muhitini tashkil etish	Mehnat harakatlari, zarur ko'nikmalar, zarur bilimlar	1	Bilish	Y1
Ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tashkil etish	Mehnat harakatlari, zarur ko'nikmalar, zarur bilimlar	1	Bilish	Y1
Bolalar rivojlanishini kuzatish	Mehnat harakatlari, zarur ko'nikmalar, zarur bilimlar	1	Mulohaza	Y3
Oila va hamkorlik qilish	Mehnat harakatlari, zarur ko'nikmalar, zarur bilimlar	1	Qo'llash	Y2
Kasbiy rivojlanish	Mehnat harakatlari Zarur ko'nikmalar Zarur bilimlar	1	Bilish	Y2
Jami		5		

Eslatma 2: yuqoridagi ko'rsatkichlar (testlar soni, qaror qabul qilish vaqti, ball, qiyinlik darajasi) sinov natijalariga qarab o'zgarishi mumkin.

VI. Test sinovlari qismlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar

Test sinovlari qismlari	Qamralgan mazmun sohalari	Topshiriq soni	Ajratilgan ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
Pedagogning kasbiy standart talablarini bilishi bo'yicha bilimlarini baholash	I – V	5	10 ball	Bilish – 3 ta Qo'llash – 1 ta Mulohaza – 1ta

Eslatma: Kasbiy standartning vaqti mutaxassislik fani bilan umumlashgan xolda beriladi, fanidan kelib chiqib 70 yoki 100 daqiqa beriladi.

VII. Baholash mezonlari

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:

- agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball.
- agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslarlar va adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.07.2025

yildagi 423-son qarori – “Мақтабгача таълим ташкилоти педагогининг касбий стандартини тасдиқлаш тўғрисида”

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabr “Мақтабгача та’лим ва тарбия то‘ғ‘рисида”ги O‘RQ 595-sonli Qonuni.